

Muallifning birinchi kitobi


Gullola RAHMATULLAYEVA

KO'NGIL GAVHARI

(Hikoya va maqolalar)

«Andijon nashriyot-matbaa» MCHJ

2013



84(59)7 - yil. q. 38.

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 94

R - 16

R - 16. Rahmatullayeva G. «Ko'ngil gavhari». (Hikoya va maqolalar). «Andijon nashriyot-matbaa» MCHJ, 2013-yil. 36 bet.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqola va hikoyalarda yosh ijodkor qizning jamiyat hayotidagi voqea-hodisalarga munosabati, xususan, yoshlarning kiyinish madaniyati, so'zlashish odobi, ularning turli illatlar domiga tushib qolmasliklari uchun ogohlikka da'vati o'ziga xos, sodda va ravon tilda bayon etilgan. Shuningdek, muallifning istiqloq, ona Vatan, milliy qadriyatlarimiz haqidagi teran fikrlari ham kitobxonlarni, ayniqsa, yoshlarni befarq qoldirmaydi.


Ana shu jihatlari bilan ushbu to'plab o'quvchilarga manzur bo'ladi, qolaversa, yosh ijodkor qizimiz kelajakda bundanda mazmunli ijod namunalari yaratadi, deb umid qilamiz.

ISBN 978-9943-4138-2-5

© G. Rahmatullayeva, 2013.

© «Andijon nashriyot-matbaa» MCHJ, 2013.

NO 42122
Da1





UYG‘OQ QALB DAV‘ATI

Adabiyot juda keng olam. Unga asir bo‘lganlarning ko‘ngli xassos, qalami teran, yozganlarida ajib tarovat bo‘ladi. Xoh nazmda bo‘lsin, xoh nasrda bo‘lsin chin ijodkorning yaratgan asari o‘qilganda yurakning allaqayeri “jiz” etadi. Yosh, endigini ijod bo‘stoniga kirib kelayotgan Gullola Rahmatullayevaning yozganlari ham qalbni “Jiz etishga” majbur qiladi. Chunki ularda yosh qalbning ona Vatanga muhabbati, yurt ravnaqidan faxrlanish tuyg‘ulari, o‘z tengdoshlari odob-axloqi, yoshlar bilan bog‘liq muammolardan qayg‘urishi o‘ziga xos tarzda bayon etiladi.

Darhaqiqat, qo‘lingizdagi ushbu to‘plamga jamlangan hikoya va maqolalarni o‘qigan kishi beg‘ubor nigohni, samimiy va xolis munosabatni, muammolarga qarshi jonkuyarlikni his etadi. Gullola, ayniqsa, Vatan haqida yozganida qalbidagi iftixorni ifodalashga so‘z yetmayotganini tan oladi. “Mustaqillik - oliy ne‘mat” maqolasida yurtimiz go‘zalligi, tarixning zarvaraqlari, buyuk ajdodlarimiz faxrimiz ekanligini madh etsa, yana bir maqolada ayrim o‘zbek yigit-qizlarining “ommaviy” madaniyatga ko‘r-ko‘rona ergashib, milliyligimizni unutayotganliklari haqida kuyunib mulohaza yuritadi. Shuningdek, Gullolaning qizlar odobi, erta nikohning salbiy oqibatlari, giyohvandlik to‘g‘risida yozganlarini o‘qib, uning bugungi muammolarga befarq emasligini, fikrlari teran, davrimizning ilg‘or yoshlaridan biri ekanligini bilish mumkin.



Yosh qalamkash qizning “Tunda ushalgan orzu”, “Hasad” hikoyalarida voqelikka bolalarcha munosabati, ezgulik hamisha yomon illatlar ustidan g‘olib bo‘lishi, do‘stlikning buyuk qudrati sodda va ravon tilda ifodalangan. Qisqasi, uning yozganlarini uyg‘oq qalb dav‘ati deyish mumkin.

Gullola o‘z iqtidorini o‘stirishdan, o‘qishdan, intilishdan to‘xtamasa, kelgusida albatta, undan yaxshi ijodkor chiqishiga ishonaman.

Ijodda ulkan parvozlari, baland cho‘qqilarni zabt etish yori bo‘laversin, Gullola!

**Zumradxon ABDULLAYEVA,
O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a‘zosi.**



TUNDA USHALGAN ORZU

Tun. Zulmat allaqachon zaminga pardasini yopgan. To'lin oy atrofidagi yulduzlar go'yo onasiga talpinayotgan mitti bolakaylarga o'xshaydi. Hovlidagi so'risi yastanib yotgan Firdavsning xayoli sochilgan: "Osmon tunda juda ham chiroyli ko'rinar ekan. Bugun yulduzlar ham porlab turibdi. Ertaga-chi? Ertaga tun qanday bo'larkin? Aytgancha, ertaga ona tili darsi bor-ku. Axir bu fandan vazifa qilmadim-ku. «Kim bo'lsam ekan?» mavzuda insho yozishimiz kerak edi. Boshim qotib qoldi, nima qilsam ekan? Xurshid qutqaruvchi bo'lib, insonlarga yordam bermoqchi. Sardor esa harbiy bo'lib, Vatanga sodiq xizmat qilmoqchi. Sarvinoz xuddi sinf rahbarimizdek ona tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lmoqchiligini aytdi. Men-chi? Men kim bo'lsam ekan?"

Firdavs savollarga javob axtarayotgan bir paytda osmonda nimadir yalt etdi, e'tibor berib qarasa, ko'kda samolyot xuddi qushdek parvoz qilayotgandi. Shunda Firdavsning qalbida uchuvchilarga nisbatan havas uyg'ondi. Havas bir zumda orzuga aylandi.

- Topdim! Ertangi inshoda, albatta, uchuvchi bo'laman, deb yozaman. Men ham xuddi uchuvchilardек tunni tun demay, kunni kun demay osmonda parvoz qilaman. Nega shu fikr xayolimga ertaroq kelmagan ekan-a?

Firdavs shirin orzular og'ushida uyquga ketdi. Hattoki tushida ham uchuvchi bo'lib osmonda parvoz qilayotganini ko'rdi.



Bir-birini quvlab yillar o'tdi. Oddiygina kechada qilingan orzu kuchli maqsadga aylandi. Bu maqsad esa sevimli kasbini - hayot yo'lini belgiladi. Ha, chin dildan qilingan orzu ro'yobi baxtning kalitidir.

HASAD

*Ko'zga og'riq tushganday aqlda ham bor hasad,
Unutmangki, hasaddan idrok ham bo'lur kasod.*

Abdurahmon JOMIY.

Odatiy kunlardan biri. Erta tongda maktabga oshiqqan uch dugona - Sevara, Farangiz, Ozodalarga doimgiday hamma havas bilan qarardi. Bu uchchala qiz juda ahil dugona.

Qo'ng'iroq chalilib, dars boshlandi. Ular aynan shu darsni juda yaxshi ko'rishar, adabiyotga qiziqishlaridanmi yoki fan o'qituvchisining shirinsuxanligidanmi, darsga jon-dili bilan kirishishardi. Dars har doimgiday bahru bayt bilan boshlandi. Ozoda va Farangiz boshliq guruh vakillari bir tomon, Sevara boshliq guruh vakillari bir tomon bo'lishdi. Gulbahor opa (fan o'qituvchisi) o'quvchilarni kuzatib turarkan, ko'p hollarda Ozoda va Farangizlarning guruhlari g'olib bo'layotganligini o'ylab, hozir ham shu holat takrorlansa kerak, deb chamaladi. Bahru bayt aytishuvida ham, dars mobaynida ham Farangizlar guruhining qo'li baland keldi va taxminlari to'g'ri chiqdi.

Uchinchi soat ham tugab, katta tanaffus boshlandi. Gulchehra opa qarasa, Sevara dugonalaridan ajrab, yolg'iz kelayotgan ekan. Uning orqasidan Ozoda bilan Farangiz ham yetib kelishib, bunday qilganining sababini so'rashgandi, Sevara labini burib:

- Nima uchun har doim darslarda senlarning guruhing yutadi? Bilaman, g'irromlik qilishasan.

- Nimaga unaqa deyapsan, o'rtoq? Sening guruhing yutgan paytlar ham bo'lgan-ku, - dedi Ozoda.



- To'g'ri, mana, masalan, o'tgan darsni olaylik. Biz qancha urinsak ham, guruhinglarni yuta olmadik, - o'rtog'ining fikriga qo'shildi Farangiz.

- Yo'q, senlar ikkoving bir bo'lib, meni atay yutasanlar, - e'tiroz bildirdi Sevara.

- UZR, sizni bilib-bilmay yutib qo'yibmiz, Sevaraxon, - gapni hazilga burdi Ozoda.

- Nima endi, shunga arazlash kerakmi? - gap qo'shdi Farangiz.

- Har doim senlar yutsang odamga alam qilar ekanda, - uyalganday bo'ldi Sevara.

- Alam qilarmish. Arazlayotgan narsasini qara buni.

- Maqolni eshitganmisan, «Lo'li arazlasa, xurjuniga ziyon». Shunday ekan, arazingni yig'ishtirda, katta tanaffus tugamasdan tushlik qilib olaylik.

- Axir, men senlardan arazlaganman-ku! - Sevaraning quvlik qilib aytgan bu gapi dugonalar o'rtasida yengil kulgu ko'tardi.

- Bo'ldi, ko'p gapirmasdan tushlik qilaylik, - gapga nuqta qo'ydi Ozoda.

O'rtog'lar gurunglashib oshxona tomon yo'l olishdi. Ularni bir chetda kuzatib turgan Gulbahor opa, Sevarada hasad tuyg'usini sezgandek bo'ldi va «oxiri baxayr bo'lsinda», deb qo'ydi.

Dugonalar yana ahillashib ketgan kunlarning birida, adabiyot fanidan fan olimpiadasi bo'lib o'tadigan bo'ldi. Bu tanlovga uch nomzod: Sevara, Farangiz va Ozodalar qo'yilgandi. Uchchala qizning ham yiqqan ballari bir xil bo'lganligi sabab ularni savol-javob qilishadigan bo'ldi. Sevara bilan Ozoda savol-javobdan chiqishib, Farangizni kutishayotgan edi. Shunda Ozoda:

- Uchovimiz ham tanlovda yutdik, ammo savol-javobdan so'ng, albatta, faqat bir kishi qoladi, - dedi Sevaraga.



- To'g'ri aytasan. Seningcha qay birimiz g'olib bo'lamiz?

- Menimcha, Farangiz yutsa kerak. Chunki uning bilimi biznikidan ancha yuqori.

- Nega endi? Men ham, yo'g'-e, bizning ham bilimimiz yuqori, har birimizning yutishga haqqimiz bor, - jahli chiqdi Sevaraning.

- Nimaga jahling chiqadi? Masalan, men yutsam ham, yutqazsam ham, olimpiadada qatnashish niyatim yo'q. Chunki iqtisod fanidan ham birinchi o'rinni olganman. O'sha fandan chiqa qolaman. Sen ham kimyodan yutding, shekilli? Shu fandan chiqsang bo'lmaydimi?

- Gaping to'g'ri-yu, lekin, men kimyodan ko'ra ko'proq ona tili va adabiyotga qiziqaman. Undan keyin, agar respublika olimpiadasida yutsam, institutga kirishga yo'llanma berar ekan.

- Axir, kimyodan ham respublikaga chiqishga imkoniyating, biliming yetadi-ku. Adabiyotdan Farangiz chiqsa, aytgan narsalaringga sen ham, u ham erishadi. Buning nimasi yomon?

- Nega endi mening iste'dodim, qobiliyatim uniki bilan teng bo'la turib, shunday narsaga u chiqishi kerak ekan? Bu fandan chiqmasa, ana, rus tilidan olimpiadaga qatnashaversin. Nima uchun har doim uchalamizdan birimizni tanlash kerak bo'lganda, sen yoki meni emas Farangizni tanlashadi? Axir senga ham alam qilmaydimi?

- Nega endi alam qilarkan? Farangiz ham, sen ham mening do'stlarimsiz. Do'stlarimning yutuqlari - mening ham yutug'im. Yoki sen uchun unday emasmi?

- Har bir insonning o'z hayot yo'li bor, - qat'iy turib oldi Sevara.

- Senga o'zi nima bo'layapti? Men tushunmayapman. Yaqindan beri o'zgarib qolding?!

- Men o'zgarmadim, shunchaki oq-qorani endi taniyapman. Qachongacha biz Farangizning soyasida yuramiz? Qachongacha



o'z iste'dodimizni uning uchun qurbon qilamiz? U biror marta bo'lsa ham bizni o'ylab qo'rganmi? Hech o'ylab ko'rganmisan, har doim uni tanlashadi, boyligi, chiroyliligi uchun bo'lsa kerakda. O'qituvchilarga o'tkazib qo'rgan joyi bordirda.

- Bas qil! O'z dugonang to'g'risida bunday gaplarni aytgani uyalmasanmi? Farangiz sening har bir yutug'ingni qo'llab-quvvatlagan, u bunday gaplarni aslo aytmagan bo'lardi. Shu gaplarni Farangiz eshitsa, nima bo'lishini bilasanmi? Uning qalbi qanchalik og'rishini hech xayolingga keltirdingmi? Bilasanmi, u ko'rikdan o'tgani kirib kelayotganida, o'zini yoki meni emas, aynan seni g'olib bo'lishingni istayotganini bildirdi. Sen bo'lsa, shu gaplarni aytyapsan-a? Sendan qattiq xafa bo'ldim... Aytgancha, Farangiz hozir chiqib qolsa kerak, kayfiyatimizni yo'qligini bildirmasligimiz zarur, bo'lmasa u sezib qoladi. Iltimos, Sevara, do'stligimiz hurmati, unga bu gaplaringni aytna. Jahling chiqayotgan bo'lsa ham kulib tur, - deb gapini tugatdi Ozoda. Bunga javoban Sevara hech narsa demadi. Ozoda esa «sukut - alomati rizo» deb qabul qildi. Bu sukunatni Farangizning qo'ng'iroqdek ovozi buzdi:

- Namuncha, suvga tushgan mushukdek shumshayib turibsizlar?

- Yo'g'e, shunchaki, sening chiqishingni kutib, zerikib ketdik. Bizdan ham ko'p qolib ketding-a? Nima bo'ldi o'zi, tezroq gapirsang-chi?

- Xonaga kirib o'tirib-o'tirib qaytib chiqdim. Nima bo'lardi, ular savol berishdi, men javob berdim, shu xolos.

- Qizlar, - bu Gulbahor opaning ovozi edi. - Kelinglar sizlarga aytadigan gapim bor.

Ozoda, Sevara va Farangiz o'qituvchilar xonasiga kirishdi.

- O'tiringlar. Barchangiz savollarga yaxshi javob berdingiz, ammo orangizdan faqat biringiz g'olib bo'lasiz. Yutqizganlar hech narsani bilmaydi degani emas, shu joygacha kelishning o'zi ham bir baxtdir, - deya qizlarga bir-bir qarab qo'rgan o'qituvchi



so'zida davom etdi. - Xo'sh, natijani eshitishga tayyormisizlar? Nima bo'lganda ham xafa bo'lish yo'q.

- Tayyormiz, - baravar javob berishdi qizlar.

- Demak, olimpiada g'olibi - dugonangiz G'aniyeva Farangiz! Uni tabriklashingiz mumkin.

Ozoda bundan xursand bo'lib, do'stini tabriklay boshladi. Shunda Sevara qarsak chalib:

- Tabriklayman! Yana bizni changingda qoldirib ketibsanda, qoyil! - dedi zaharxandalik bilan.

- Bu nima deganing, tushunmadim, - hayron bo'ldi Farangiz.

- Nimani tushunmaysan? Sevar hazillashyapti. Kelinglar, buni nishonlaymiz, - gapni burdi Ozoda.

- Sizlar bemaol boraveringlar. Men bugun uyga sal ertaroq borishim kerak edi. Mayli, xayr, men ketdim. Sevara shunday deb orqasiga qaramay ketib qoldi.

Bu holatdan ikki dugona hayron. Ayniqsa, Farangiz hech narsaga tushunmayotgan edi. Ozodadan savoliga aytarli javob ololmadi.

G'olibni tabriklash bayrami ham yaxshi o'tmadi. Ozoda bilan Farangizning gapi bir-biriga qovushmagach, dugonalar o'z uylariga tarqaldilar.

Uch dugonaning xayolida turli fikrlar charx urardi. Farangiz «Do'stimni ranjitib qo'ydimmikan? Yo'q, xafa qiladigan so'z aytmadim-ku. Yoki... olimpiadada g'olib bo'lganimga xafa bo'ldimikan? Balki u menga hasad qilayotgandir? Yo'g'-e... Sevara hech qachon unday qilmaydi!» deya dugonasini ayblashni istamasdi.

Ozoda esa, «Sevaraning o'zgarganini sezgandim, lekin bunchalikka boradi, deb hech o'ylamagandim. Nahotki, o'z do'sti, o'z dugonasi to'g'risida shunday xayolga borsa? Yo'q, yo'q, uni arazlab oladigan fe'li bor-ku, shunga bo'lsa kerak-da. Baribir unaqaga ham o'xshamayaptida... Bo'ldi, bu haqda



boshqa o'ylamayman. O'ylaganim sari xayolimga yomon fikrlar kelyapti. Yaxshisi, ustozimiz bergan vazifani bajaray», deb o'zini ovutardi.

Sevaraning xayolida esa butunlay boshqa fikrlar g'ujg'on o'ynardi: «O'ylaganlarim to'g'ri bo'lib chiqdi. Har doimgidek yana Farangiz birinchi o'rinni oldi. O'zi oyim to'g'ri aytgan ekan, ularga ishonma, deb. Men ahmoq bo'lsam, ularning tarafini olib o'tiribman. Ozodaga ham hayronman, juda aqlli, a'lochi qiz bo'la turib, o'z o'rnini Farangizga bo'shatib beryapti. Eh Farangiz, Farangiz, nega hamma uni yaxshi ko'radi-ya. U haqda biror nojo'ya fikr aytilsa bormi, sinfdoshlari ham bir zumda jahil qilishadi. Barcha o'qituvchilarning og'zida ham faqat va faqat - Farangiz. Xuddi uning kamchiligi yo'qdek». Yaqinda «Balli, qizlar» ko'rik-tanlovi bo'ladi, unga ham yana Farangiz qatnashsa kerak. To'xta, nega endi u, men ham qatnashsam bo'ladiku! Faqat buning uchun mening yo'limga Farangiz to'g'onoq bo'ladi. Uni qanday qilib yo'limdan olib tashlasam ekan? Topdim! Ustozimizga sinf o'rtasida ham musobaqa o'tkazishni taklif qilaman. Menimcha, Ozoda tanlovda qatnashmasa kerak, qatnashsa ham atay yutqazib beradi «do'sti uchun». Tanlovda, asosan, men va Farangiz bo'lamiz. Ana o'shanda ko'ramiz uning ahvolini, nima bo'larkin?»

Sevara o'z rejasini xayolida pishitib oldi, ertasiga esa sinf majlisida qulay fursat kelganligini bilib, dilidagi gaplarini tiliga ko'chirdi:

- Ustoz, menda bir taklif bor edi. Mana, yaqinda sinflar o'rtasida «Balli, qizlar» tanlovi bo'lib o'tadi. Shuning uchun men bu tanlovni sinf ichida ham o'tkazib, tanlov qatnashchisini aniqlab olishni taklif qilaman. Nima deysizlar?

- Yaxshi fikr, bahonada qizlarimning qo'lidan qanday mazali taomlar tayyorlash kelishini bilib olardim. Sizlar nima deysizlar? - o'quvchilarga murojaat qildi Nilufar opa.

- Mayli, faqat bir shartimiz bor, tayyorlagan ovqatinglardan



bizga ham berasizlar-a, qizlar, - dedi Sarvar ismli sinfdoshi.

- Yo'q, aynan senga bermaymiz, Sarvar, - hazil qildi Farangiz.

- Xo'sh, qatnashish niyati borlar o'rnidan tursin. Demak, Sevara, Farangiz, Mubina va Gulshan. I-ye Ozoda, senchi, qizim, qatnashmaysanmi? Axir tanlovimizni sening shirin taomlaringiz tasavvur qila olmaymiz, bo'laqol sen ham o'ringdan tur. Xo'sh, besh nafar qatnashchi bo'libdi. Tanlovimizda kimlar olib boruvchi bo'ladi?

- Har doimgiday Javohir bilan Umid bo'la qolsin, - javob berishdi o'quvchilar.

- Juda yaxshi, ikkalovingiz tanlov shartlarini tuzib, qatnashchilarga topshirasiz, xo'pmi? Endi boshqa masalalarga o'tsak, - davom etdi Nilufar opa.

Rejasi amalga oshayotganidan xursand bo'lgan Sevaraning qulog'iga o'qituvchisining gaplari aslo kirmadi. Sinf majlisi tugaganidan so'ng, Javohir bilan Umid tanlov shartlarini e'lon qilishdi. Tanlov bir haftadan keyin bo'ladigan bo'ldi.

Tanlovdan keyingi voqea barchani qalqitdi:

- Farangizga nima bo'lganini eshitinglarmi? Ovqatdan zaharlanibdi. Tanlovda yutgan edi, kasal bo'lib qolgani uchun endi maktab miqyosidagi tanlovda qatnasha olmaydi. Ikkinchi o'rinni olgani uchun tanlovda Sevara qatnashsa kerak. Bechora Farangiz, - sinfdosh qizlarning chin yurakdan aytgan bu gapini Sevaraning zardali tovushi buzdi:

- Nega endi bechora bo'larkan? Agar mas'uliyatsizlik qilmaganida, bunday ishlar bo'lmasdi. Ayb o'zida.

- Hech kim aybni senga ag'darayotgani yo'q-ku, - dedi Sarvinoz.

- Bunday qilolmaysizlar ham!

- Sevara, senga nima bo'ldi? Ranging dokadek oqarib ketibdi.

- Menga hech narsa bo'lmadi, - e'tiroz bildirganicha yugurib



xonadan chiqib ketdi Sevara.

- Sevaraga nima bo'ldi? Juda g'alati bo'lib qolibdi.

- Axir, Farangiz eng yaqin do'sti-ku! Shuning uchun bo'lsa kerak-da.

- Ha, to'g'ri aytasan.

Ularni kuzatib turgan Ozoda hamma narsani tushungandek bo'ldi.

Ozoda o'ylab o'yiga yeta olmasdi: «Nahotki, Sevara shunday qilgan bo'lsa? Ishongim kelmayapti. Axir u... Farangizga endi nima bo'ladi? U bu ishni Sevara qilganini bilarmikin? Ishqilib, tuzalib ketsinda. Odam o'z o'rtog'ini ham zaharlaydimi? O'zim ham aytdim-a, necha kundan beri Sevara Farangizga ovqat tashiyapti deb, bir haftaning ichida oshqozonini og'ulabdi-da. Afsuski, Sevarani ayblash uchun menda dalil yo'q. U bu ishni qilganini hech qachon tan olmaydi». Ozodaning xayolidan bu fikrlar o'tayotgan paytda Sevara vijdon azobidan qiynalayotgan edi:

«Nima qilib qo'ydim? O'z do'stimni zaharladimmi? Ishqilib, biron sezmadimikan? Menimcha, Ozoda sezgan, chunki menga g'alati qaraganday bo'ldi. Agar rostdan sezgan bo'lsa, Farangizga uni men zaharlaganimni aytib qo'yadi, keyin Farangizning ko'ziga qanday qarayman? Eh, nega Oydinning gaplariga quloq soldima? Uni Farangizga hasad qilib yurishini bilardim-ku. Lekin o'zim ham Farangizga hasad qildim-ku. Agar hasad qilmaganimda, bunday ishlar bo'lmagan bo'lardi. Nega shu haqda oldinroq o'ylamadim. Endi nima qilaman? Yaxshisi, Farangizga bor gapni o'zim aytaman. Balki kechirar, balki kechirmas, nima bo'lganda ham aytishim kerak, bunga majburman. Ha aytaman, albatta, aytaman...»

Sevara shunday fikrlar og'ushida Farangiz yotgan shifoxonaga yo'l oldi. U dugonasining xonasiga kirganida ne ko'z bilan ko'rsinki, u yerda Ozoda ham bor edi. Sevara Farangiz va Ozoda bilan hijolatli salomlashdi. Gapni nimadan boshlashni



bilmay, ikkilanib qoldi va o'zini o'ng'lab olgandan so'ng so'z boshladi:

- Farangiz, senga bir gapni aymoqchiman.

- Bemalol, nima gaping bo'lsa aytaver, qulog'im senda.

- Gapni nimadan boshlashga hayronman. Nima desam ekan, - ozgina sukutdan so'ng so'zida davom etdi. - Farangiz seni mana shu ahvolga tushishingga men sababchiman. Agar men hasadgo'y bo'lmaganimda, sen bilan bunday voqea yuz bermagan bo'lardi. Meni kechir, dugonajon!

- Sevara, nimalar deyapsan? Bunga sening nima aloqang bor? Hech narsaga tushunmayapman.

- Nimaga jim turibsan? Gapirmaysanmi? - shoshirdi Ozoda.

- Hozir hamma gapni aytib beraman. Menda senga nisbatan hasad tuyg'usi uyg'ondi. Sen barcha fanlardan a'lo baholarga o'qirding. Hamma seni maqtab, ko'kka ko'tarardi. Bu esa menga umuman yoqmasdi, go'yo menga hech kim e'tibor bermayotgandek tuyulardi. Men har doim hammadan e'tibor kutardim, ammo barcha sen bilan ovora, hamma sening atrofingda girdikapalak bo'lardi. Men sinfda o'z o'mimni topa olmagandim, o'mimni topishim uchun esa yo'limda sen to'g'onoq bo'larding. Shuning uchun ham seni yo'limdan olib tashlashni istardim. Buning uchun reja tuza boshladim. Har doim tadbirlarda sen olib boruvchi bo'larding, esingdami? Yangi yilda qilingan tadbirda senariying yo'qolib qolgandi, yodingdami?

- Ha, esimda. Aksiga olib, o'shanda ustozlarimizning ham senariysi uyda qolgan ekan, shuning uchun tadbir ertasi kunga qoldirilgan edi.

- To'g'ri, o'sha ishni ham men qilgan edim. Senariying yo'qolib qolsa, seni mas'uliyatsizlikda ayblab, keyingi tadbirlarga olishmas, deb o'ylagandim. Ammo bu ish ham foyda bermadi, ustozimiz buni shunchaki bir xato, hammada ham bo'lib turadi deb, e'tiborsiz qoldirdi. Bu battar jahlimni chiqarar, hasad o'tida yanada ko'proq qovurildim. Men endi yanada



SO‘Z SEHRI

*So‘zdirki, nishon berur o‘likka jondin,
So‘zdirki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guxari sharifroq yo‘q ondin.*

Alisher NAVOIY.

Muqaddas kitoblarda aytilishicha, so‘z dunyodagi barcha narsalarning asosidir. Rivoyat qiladilarki, Tangri o‘zining qudrati va go‘zalligiga ko‘zgu bo‘ladigan ne‘mat yaratadiki, kunlarning birida: «kun», ya‘ni «Yaral» degan so‘zni aytadi. Yaratgan amrining ifodasi bo‘lmish ana shu birgina so‘zning kuchi bilan o‘n sakkiz ming olam va undagi jamiki narsalar dunyoga keldi. Demak, so‘z olam va undagi narsalardan oldin paydo bo‘lgan ekan. So‘zning cheksiz qudratini anglamoq uchun uning ko‘ngil kechinmalarini-da ifoda eta olishini bilish kifoya.

Insoniyat odobning va odamiylik asosining ustunlaridan biri bu so‘zlashishdir. So‘zlashishning qimmatbaho gavhari esa muloyimlik va odobdir. Kattaga hurmat, kichikka izzat bo‘lish demakdir. Insoniyat kamoloti va bilimining baland martabalaridan biri chiroyli so‘zlash bo‘lib u har bir aql sohibi fazilati xazinasining kalitidir, har bir insonning bilim darajasi uning so‘zlari orqali ma‘lum bo‘ladi. O‘zbek adabiy tilining asoschisi, so‘z mulkingning sultoni, buyuk bobokalonimiz hazrati Alisher Navoiy shunday deydi:

Og‘izga kelganni demak - nodonning ishi,

Oldiga kelganni yemak - hayvonning ishi.

Darhaqiqat, inson so‘zlashidan oldin yaxshilab o‘ylab olishi, kimningdir ko‘nglini og‘ritib qo‘ymasligiga amin bo‘lishi va ana undan keyin gapirmog‘i lozim. Albatta, so‘zlashish kishining madaniyatini bildiruvchi eng asosiy belgi hisoblanadi. Inson hayot ekan u turli xil vaziyatlarda turli xil insonlar bilan




so‘zlashib turadi. Ayni shu paytda u birgina so‘z bilan o‘zining «qanday» ekanini ko‘rsatadi. Ammo bugun kishilar «so‘zlashish madaniyati», degan tushuncha borligini unutib qo‘ymoqdalar. Ko‘cha-ko‘yda, jamoat joylarida yosh yigit-qizlarning noodatiy so‘zlashish uslubiga, ba‘zida esa hatto katta yoshdagi ayollarimizning ham og‘zidan chiqayotgan so‘zlarga yoqa ushlaysan kishi. Nega shunday? Agar kattalarimiz shu yo‘sinda so‘zlashishsa, biz yoshlar ulardan qanday o‘rnak olishimiz mumkin? Axir biz - kelajak vorislariga o‘rnak bo‘lmoqliklari zarur emasmi? Nega ular odob doirasidan chetdagi so‘zlarni aytishdan avval shu oddiy naqiqatni anglab yetishmas ekan. Xalqimizda «nimani eksang shuni o‘rsan» degan naql bajizga aytilmagan. Darhaqiqat, o‘zlari so‘zlashuv madaniyatiga amal qilmasdan, qanday qilib farzandlaridan xushmuomala bo‘lishlikni talab qila oladilar? Axir «qush inida ko‘rganini qiladiku».

Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy shunday so‘zlari bor: «So‘z buyuk narsa, shuning uchun ham buyukki, so‘z orqali odamlarni birlashtirish, so‘z orqali ularni bir-birlari bilan yuz ko‘rmas qilib yuborish mumkin. So‘z bilan mehr qozonish, so‘z bilan nafrat va adovatga yo‘liqish mumkin». Shunday ekan, aziz opa-singillar, aka-ukalar odamlarni bir-biridan ajratadigan so‘zlarni aytishdan har doim saqlanaylik.

ERTA TURMUSH QURISHNING OLDINI OLAYLIK

Go‘zal xulq-atvor, xushmuomalalik, pazandaligu chevarlik o‘zbek qizlarining fazilatlarini namoyon etuvchi xislatlardir.

Xonadoniga kelgan har bir mehmonni ochiq chehra bilan qarshilab, ularning hurmatini joyiga qo‘yuvchi ham, tong saharlab ko‘chaga suv sepib, ozoda qilib supurguvchi ham o‘zbek qizlari.





shuurimizga o'z vaqtida singdirish, bizdagi salomatlik, oila haqidagi tushunchalarni kengaytirish, jamiyat oldidagi mas'uliyat va burchlarni anglatish, tibbiy madaniyatni yuksaltirish, sog'lom oilani shakllantirishga doir bilim va ko'nikmalarni yanada mukammallashtirish iboratdir. Shu bois, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlovchi «Orasta qizlar» to'garaklari ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, erta oila qurish, shuningdek, qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning salbiy oqibatlarini tushuntirish hamda ularning oldini olish, odam savdosidek ofatning asiri bo'lib qolmaslikka, milliy qadriyatlarimizga hurmat uyg'otishga ko'maklashuvchi tadbirlar majmuasini tarkib toptirdi. Bundan tashqari, yoshlarimizning, xususan, o'quvchi qizlarning kitobga bo'lgan mehrini yuksaltirishga, internetning ijobiy va salbiy jihatlarni anglatishlikka, xonadonlar, mahallalardagi sarishtalikka hissa qo'shib, ommaviy madaniyatning ma'naviyatimizga ta'sir etish ehtimoli bo'lgan yo'llarni kesishga, kiyinish, o'zaro muomala madaniyati kabi muhim vazifalarni hal etishga yordam berishi maqsad sifatida belgilandi.

Shundan bo'lsa kerak, ushbu to'garak tez fursatda qizlar orasida katta qiziqishga sabab bo'ldi. Natijada, 2012-yilning sentabr oyidan boshlab, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Xalq ta'limi vazirligi hamkorligida respublikadagi barcha umumta'lim maktablarida 8-9-sinflarda o'qiydigan qizlardan tashkil topgan guruhlar o'rtasida «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Mazkur ko'rik-tanlovning quyi bosqichlari tanlov tarzida, respublika bosqichi esa do'stona munosabatlar namoyishi sanalmish festival tarzida o'tkaziladi. Shu ko'rik-tanlovda va festivalning g'oyasi o'quvchi qizlarni umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida, yuksak odob-axloq tamoyillari asosida tarbiyalash, biz - qizlarning ongimizni g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish, yoshlarning bugungi islohotlarga, dolzarb muammolarga faol



munosabatlarini shakllantirishga, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qaratilgan.

O'zbek xotin-qizlari faqatgina oilasi, ro'zg'or tashvishlari atrofida o'ralashib qolmay, jamiyatimiz taraqqiyotiga ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqdalar. Qay biri o'qituvchilikni kasb etib, kelajak avlodga ta'lim berayotgan bo'lsa, boshqasi tadbirkorlik bilan shug'ullanib oilasiga qo'shimcha daromad olib kirish bilan birga o'zi yashab turgan joydagi ayollarni ish bilan ta'minlamoqda.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugun dunyoda juda ko'p qizlar ta'lim olish huquqidan mahrum. Nega ular o'qiy olmayapti, degan savol tug'iladi. Chunki, dunyodagi qator mamlakatlarda yoshlarning o'qishi uchun imkoniyatlar mavjud emas.

Shukri, O'zbekistonimizda 12 yillik ta'lim majburiy, bundan ko'zlangan maqsad - kelajak avlod vorislari o'z qadrini bilgan insonlar bo'lsin. Odam savodli bo'lsa, o'z qadrini, o'zgalar qadrini ang'ay oladi. Yurtini ko'klarga ko'taradi.

Shukri, bizda 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan qizlarga oliy o'quv yurtiga kirish imtiyozini beruvchi Davlat mukofotlari, stipendiyalar joriy etilgan.

Bizdan faqat va faqat o'qish, bilim olish talab etiladi, xolos.

Prezidentimiz o'zining qator ma'ruzalarida aynan qizlarimizning ta'lim olishlariga alohida e'tibor qaratdilar. Tezroq dabdabali to'y qilib, badavlat joy bilan quda bo'lish istagida bo'lgan, o'zining murg'akkina qizlarini turmushga uzatish payida yurgan «mehribon» ota-onalarning hoyu havaslari, ayrim qizlarning o'tkinchi havaslarga berilib, erta turmush qurish singari holatlarning oldini olish zarurligi aytib o'tilgan. Buning oqibatida salbiy ko'rsatkichlar - erta turmush qurish, ajralish kabi holatlar tez-tez qayd etilmoqda. Aybdor kim? «Hamma» deb aytgning keladi.

Shularni tahlil etib, tengdosh dugonalarimga quyidagilarni



aytishni lozim deb bilaman: «Qaytib kelmas davr bolalik, o'smirlik va yoshlikning jo'shqin hayoti, ilmga intilish davrini munosib o'tkazib, keyin oila qurish yo'lini tanlaylik! Faqat shu yo'l to'g'ri! Faqat shu yo'l yoshlar kamoli uchun qayg'urayotgan ozod va obod yurt qizlariga munosibdir».

GIYOHVANDLIK - ASR VABOSI

Jirkanch illat, ofat, ajal, urush... Bu kabi jaholat ko'inishlarini qancha qoralamaylik, unga qarshi qancha kurashmaylik, baribir ne baxtsizlikki, giyohvandlik XXI asr vabosi sifatida «yashamoqda».

Insoniyat hayotiga tahdid soluvchi bu illatga chalingan kimsalar ixtiyoriy ravishda ayanchli o'limga yuz tutishlarini biladilar. Ammo bu jarlikdan qutilish nihoyatda og'ir kechmoqda.

“26-iyun - Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni” deb e'lon qilingan. Bu qaror bundan 25 yil oldin – 1987-yili BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan. Bugungi kunda BMT doirasida ushbu illatga qarshi giyohvandlikni nazorat qilish bo'yicha xalqaro qo'mita, BMTning giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi samarali faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarini tan olgan holda insoniyatni falokatga yetaklovchi og'u - giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishiga qarshi samarali ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash borasida mintaqaviy va xalqaro miqyosida yetakchi o'rinlardan birini egallab turganligini alohida qayd etish kerak. O'zbekiston - giyohvand moddalar oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan guruhlarining noqonuniy faoliyatiga chek qo'yish, kontrabanda yo'llarini yopish,



giyohvand moddalar ekilgan maydonlarni yo'q qilish, shuningdek, giyohvandlikning oldini olish bo'yicha aniq maqsadli tadbirlarni o'tkazishga katta e'tibor qaratmoqda. Mazkur giyohvandlik vositalaridan jabr ko'ruvchilarning aksariyatini yoshlar tashkil etayotganligi yanada achinarli holdir. Giyohvandlikka duchor bo'lganlarning asosiy qismini 16-19 yoshdagilar, 30 foizini esa 24 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qilmoqda. Respublikamiz hududidan narkotranzit sifatida foydalanishga urinishlar ham barcha-barchani ogohlikka undaydi.

Giyohvand vositalar kontrabandasi respublikamizning Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegaradosh bo'lgan hududlarda sodir bo'layotgani achinarlidir. Ayniqsa, bugun butun dunyoda xalqaro aloqalarga ega bo'lgan jinoiy narkoguruhlarining faollashuvi kuzatilayotganini qayd etib o'tish kerak. Giyohvandlik chegara bilmaydi. Odam tanlamaydi. U kirib kelgan oiladan falokat arimaydi. Shuni afsus-nadomat bilan aytish kerakki, voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlik vositalarini qonunga xilof ravishda qo'lga kiritish, iste'mol qilish holatlari hamon uchramoqda. Dunyoga o't ketsa ketsin, mening qozonim qaynasa bo'ldi, deydiganlarning "tashabbusi" bilan o'tkazilayotgan, sotilayotgan «tovar»ni xarid qilayotganlar, uni iste'mol qilayotganlar, ularning oilalari, farzandlari bilan bog'liq moddiy, ma'naviy muammolar, onalar ko'z yoshi, tengqurlari qatori chopqillab yurish, sog'lom fikrlash baxtidan mahrum begunoh norasida go'daklar taqdiri qachongacha jamiyatning og'riq nuqtasi bo'lib qoladi, degan savol kishini qiynaydi.

Bugunning dolzarb muammosiga qarshi kurashish, giyohvandlikning oldini olish har birimizning burchimizga aylanishi, ogohlik da'vati mash'ala singari qo'limizda, hayot yo'limizda bo'lmog'i kerak, deb o'ylayman.



TELEFONDA SO‘ZLASHISH ODOBI

Texnika haqida aytarli tasavvur yo‘q paytlar bugunning bu tahlit taraqqiydashib ketishi kimning ham tushiga kiribdi, deysiz. To‘g‘ri-da, biror hodisa haqida birovga xabar yetkazish uchun kamida kunlab, haftalab, boringki, oylab vaqt kerak bo‘lgan. Har holda Yevropadan Osiyoga jo‘natilgan maktub daqiqalarda yetib kelmagani aniq.

«Bir zamonlar»ni o‘tmishda qoldirib, kutilgan, lekin bunchalik bo‘lishi xayolga kelmagan davrda yashayapmiz. Uzoq masofalarni chetlab o‘tib, internet va telefon orqali yo‘qlashamiz - quvonchni ham, g‘amni ham birdek baham ko‘ramiz.

Aloqa vositasining bu turlari hayot tashvishlariga o‘ralashib qolganiga esa ancha bo‘lgan. O‘g‘lining biroz hayallab qolganidan xavotirga tushgan ona telefon go‘shagiga qo‘l cho‘zadi. Oshiq yigit ko‘ngil qo‘yganiga izhori dil etmoqlik uchun munosib so‘z topolmasa, elektronroma yo‘llashni ma‘qul ko‘radi. Ikki kunga deb qarz olganu, ikki oydan beri ko‘rinish bermayotgan «yaqiningiz»ni axtarib uyidan topolmasangiz, yana telefon joningizga oro kiradi va hokazo. Ammo bu «hokazolar»ning hammasi ham sizni bizning foydamizga xizmat qilavermaydi. Uyali telefon ixtiro qilingunga qadar olimlar ozmuncha ter to‘kishganmi, axir?

Hayotimizga telegraf, radio, keyin telefon kirib keldi. Radiotelefon, peydjer, uyali aloqa telefoni... Inson hayotining turmush tarzi rivojlanib bormoqda. Muhim telefon so‘zlashuvlari qisqa, muloyim va hurmat yuzasidan bo‘lishi kerak. Tadqiqotlarga ko‘ra, tik turgan holda gaplashsangiz, ovozingizdagi ohang qat‘iyroq bo‘ladi. Agar o‘tirgan holda gapirsangiz, ovozingiz yumshoqroq va muloyimroq chiqadi.

Telefonda gaplashishning bir nechta umumiy qoidalari bor. Raqam terishdan avval o‘ylab ko‘rishingiz kerak. Sizing qo‘ng‘irog‘ingiz xush kelarmikan? Telefon qilayotgan



kishingizni bezovta qilib qo'ymasmikansiz? Shu topda siz qo'ng'iroq qilayotganingizda, uni kimdir bezovta qilmayotganmikan?

Har qanday qo'ng'iroq salomlashish va tanishishdan boshlanadi, so'ng o'zingizga zarur bo'lgan odamni chaqirib berishlarini iltimos qilasiz. Suhbatni boshlashdan oldin «muhim ishdan qoldirmadimmi?» deb so'rang. Yodda tuting, tanishingiz yoki dugonangiz bilan shoshilmasdan suhbat qurayotgan paytingiz sizga muhim ish bilan qo'ng'iroq qilayotgan bo'lishlari mumkin. Telefon orqali bekorchi gaplarni gaplashmang. Agar do'stingiz bilan ko'ngildan suhbatlashmoqchi bo'lsangiz, u bilan biror joyda uchrashib gaplashganingiz ma'qul. Judayam kech bo'lib qolganda, tanishingizga qo'ng'iroq qilmang. Agar chaqiruv 5-6 marta takrorlansa ham, telefonni hech kim ko'tarmasa, boshqa qo'ng'iroq qilmang. Mabodo kimdir raqamni noto'g'ri terib, telefoningizga tushib qolsa, qo'pollik qilmay, mayinroq javob bering: «Kechirasiz, boshqa raqamga tushib qoldingiz». Eslab qolish zarur bo'lgan shunday qoida bor: do'stingizning uyiga ogohlantirmasdan bormang. Bu telefonning afzalliklaridan biridir.

Hech qachon telefon qilayotgan insondan «Kim bu gapirayotgan?» deb so'ramang. Bu odobdan emas.

Telefon orqali muloqot vaqtida aloqa uzilib qolsa, o'sha odamga qayta qo'ng'iroq qiling. Noto'g'ri ulanib qolgan bo'lsa, gaplashishdan oldin qayerga qo'ng'iroq qilayotganligini aniqlab oling.

Go'shakda baqirib so'zlashmang - bu eshitishni yaxshilamaydi; yaxshisi, shoshilmasdan, so'zlarni aniq ifodalab gapiring. Gaplashayotganda qo'pol ham, o'ta muloyim ham bo'lmang. Uchrashuvga kelishib olayotganingizda, telefonda hamma savollarga javob bermang. Kimnidir telefonga chaqirib berishlarini so'rasha, kim so'rayotgani bilan qiziqmang. Lekin rahbaringiz so'rasa, qanday joy bilan ulanayotganingiz, kim



gapirayotgani, qayerdan va nima maqsadda, qanday tanishtirish kerakligi haqida bilib olishingiz kerak.

Go'shakni ko'tarib qo'ymang. Yana qo'ng'iroq qilishlari mumkin. Yaxshisi, «20-30 daqiqadan keyin qo'ng'iroq qiling», deb ayting. Sherig'ingizga qo'ng'iroq qilishga kelishgan bo'lsangiz va'dangizni bajaring. O'ta zarur ishingiz bo'lmasa, ishdagi odamga shaxsiy ishlar bilan qo'ng'iroq qilmang. Ish yuzasidan bo'lsa, bir necha daqiqaga qo'ng'iroq qilsangiz kifoya.

Ogohlantirmasdan turib, ertalab soat 8.00 gacha, kechqurun soat 22.00 dan keyin qo'ng'iroq qilmang. Telefoningiz oldida qayd daftarchasi va qalam turishi kerak. Nimanidir yozib olish zarurat tug'ilsa bu narsalarni qidirib qolmaysiz.

O'ta muloyimlik ham odobdan emas. Shakarning ham ozi yaxshi. Albatta, «marhamat qilib» «rahmat», so'zlarini ishlatasiz, biroq uzoq so'rashib, boshni qotirmaganingiz ma'qul.

Telefonsiz insonga tez yordam ko'rsatib bo'lmaydi. Bunda bo'lib o'tgan voqeani aniq va lo'nda ifoda etish zarur. Ortiqcha gaplar bilan vaqt yo'qotmagan ma'qul. Agar favqulodda hodisa bo'lgan vaqtda qo'lingizda telefon bo'lsa, yordam chaqirish uchun berish zarur. Qarindoshlaringiz, do'stlaringiz tanishlaringizning boshiga biror ish tushsa, telefon orqali so'rash to'g'ri kelmaydi, bunday vaqtda ularning oldiga qanday yordam kerak, deb ko'ngil so'rab borish zarur.

Odatda ishga doir qo'ng'iroqlar ishxonaga qilinadi. Agar vaziyat taqozosi bilan kimningdir uyiga telefon qilishga to'g'ri kelsa, avvalo, uzr so'rash, shundan so'nggina qo'ng'iroqda maqsadingizni qisqa bayon qilish lozim. Tafsilotlarni uchrashganda yoki ishxonaga qo'ng'iroq qilganda gaplashishga kelishib oling. Chunki odamlar uyda ish haqida o'ylamay, dam olish huquqiga egalar. Bu huquqni hurmat qilish kerak.

Agar notanish odamga qo'ng'iroq qilayotgan bo'lsangiz, albatta, o'zingizni tanishtirib bu raqamni sizga kim berganini ayting.



G'arbda telefon orqali har qanday suhbat 3-5 daqiqadan ortiq davom etmasligi kerak, deb hisoblashadi. Bunga hech bo'lmaganda, ish yuzasidan bo'layotgan suhbat jarayonida amal qiling.

Qoida bo'yicha, qo'ng'iroqni qabul qilayotgan shaxs o'zini birinchi bo'lib tanitmaslik huquqiga ega. «Kim bilan gaplashyapman?», «Bu kim?», «Men qayerga tushdim?» kabi so'roqlar bilan gap boshlash odobsizlik sanaladi. Agar qo'ng'iroqqa chaqirilgan kishi joyida bo'lmasa, go'shakni olgan odam kim telefon qilganini aniqlashtirib o'tirmasligi kerak. «Kim so'rayapti?»dan ko'ra, «Nima deb qo'yay?» degan so'roq yaxshiroq.

Telefonda so'zlashayotganda, tinglash qobiliyati juda muhim. Buni esdan chiqarmang.

Ko'chada, odamlar orasida ba'zida mobil telefon orqali baqirib gaplashayotgan kishini uchratamiz. Yoki tramvay, avtobusda ketayotganimizda mobil telefonida gaplashayotgan odamning ovozini hamma eshitadi. Aytishlaricha, Yaponiyada avtobusda ketayotgan bir odam mobil telefonda baqirib gaplashgani uchun atrofidagi yo'lovchilar uni do'pposlashgan ekan. Bu kabi muammolarga biz duch kelmaymiz, deb bo'lmaydi. Nachora, ehtiyojlarning o'zi qonun-qoidalarni paydo qiladi. Jamoat joylarida mobil telefoningizga qo'ng'iroq qilib qolishsa, agar zarur bo'lmasa, yaxshisi, «Hozir transportda yoki biror joyda edim, sal turib o'zim qo'ng'iroq qilaman», deganingiz ma'qulroq. Zero, telefonda so'zlashuv ham sizning nazokatingizni belgilab beradi.

KIYINISH HAM ODOB, HAM AXLOQ

Istiqlol bizga o'zligimiz, qadriyatlarimiz, qadim an'analarimiz qaytishiga yo'l ochdi. Xalqimiz ruhiy asoratdan, ta'qibu tazyiq va qo'rquvlardan ozod bo'ldi. Bizga yashash



zavqi, bunyodkorlik ilhomi baxsh etildi. Yurtimiz chinakamiga ozod va ma'mur bo'ldi.

Ne saodatki, istiqlolimizga, vatanimizga, kelajagimizga munosib barkamol avlod vakillari voyaga yetdi. Ularning odo-axloq, ilmu tafakkur bobidagi muvaffaqiyatlari ko'p. Bundan quvonamiz, faxrlanamiz. Biroq ayrim hollarda, ko'cha-ko'yda, jamoat joylarida millatimizga mos kelmaydigan tarzda kiyinib olgan yoshlarni, ayniqsa, qizlarni ko'rib, ko'nglimiz ranjishi ham bor gap.

Aslida kim qanday kiyinishi har bir insonning shaxsiy ishidir. Lekin bir tuyg'u borki, uni pisand qilmaslik ko'ngilga xavotir soladi. Bu tuyg'u - go'zal xulq, o'zbekona odobu andishaga nisbatan ehtirom hamda hurmatdir. Chuqur va xolis nigoh tashlaganda, kiyinish odobi milliylikka xoslik, qadriyatlar va an'analardan kelib chiqadi. Zotan, azaldan xalqimizda «hayo va iboning tashqi ko'rinishi kiyimdir» mazmunidagi hikmat bor.

Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri bu kiyinishdir. Kimning qanday kiyinganligiga qarab, uning did-farosati, moddiy va ma'naviy darajasini, hatto kasbini aniqlab olish mumkin. Kiyinish madaniyati jins, yosh, fasl, millat, urf-odatlar, kasb-kor, zamon va taraqqiyotning muayyan bosqichi darajasi bilan bog'liqdir. Bolalar, qizlar, yoshlar, o'rta yoshlilar, keksa odamlarning kiyinish madaniyati mazmuni va shaklu shamoyili jihatidan bir-biridan ajralib turadi. Bizning o'zbek xalqimiz kiyinish madaniyati nuqtai nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari otabobolarimiz egniga yaktak-lozim, oyog'iq kovush-maxsi, etik, boshga do'ppi, egniga chopon, to'n kiyib, belga belbog', qiyiq bog'lashgan.

Momolarimiz ham qimmatbaho, nafis uzun ko'ylak-lozim, kovush-maxsi, kamzul, to'n kiyishgan. Jun, ipak, tovar, chit-satin ro'mollar o'rishgan. Sochpopuk, kulota, po'pak, tillaqosh, zebigardon, turli-tuman uzuk-halqa, tanga-tillolardan iborat



taqinchoqlar ham kiyimlar dastasiga yanada ko'rk va jilo bergan. Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan.

Ajdodlarimizdan meros - kiyinish madaniyati o'zligimizni anglatishini, asrlar shiddatiga dosh bergan irodamizni, sabru qanoatimizni, pok umidlarimizni ifoda etishini unutmaylik. Milliy kiyimlar va bezak turlari tariximiz davomida shakllangan bo'lsa-da, keyingi paytda turli o'zgarishlarga yuz tutayotgani sir emas. Bu hol tabiiy. Lekin o'zgarishlarni, yangiliklarni oqilona qabul qilish kerak. Milliylik inson botinida ham, zohirida ham saqlanib qolmog'i muhimdir.

Mehmonnavozlik, olijanoblik, mehr-muruvvat, saxovat, rahm-shafqat - bularning bari bizning axloqimizda mujassam. Demak, kiyinishimiz ham shunga yarasha bo'lishi lozim. Zukko ayollarimiz, parichehra qizlarimiz kalta ko'ylaklar, tana a'zolari ko'rinib turadigan kiyimlar kiyishni o'zlariga or deb bilishgan. Ularning qalb go'zalligi serjilo matolardan sharqona nazokat ila tikilgan kiyimlarda yorqin aks etib turgan. O'zbek ayollari o'sha paytlardanoq o'zimizga xos va mos liboslar kiyishgan. Turli marosim va tadbirlarga moslab, maxsus kiyimlar tayyorlab qo'yishga intilishgan.

Azaldan o'zbek qizlarini onalari yoshligidanoq bichish-tikishga puxta o'rgatishgan. Deyarli barcha qizlar chok ishlarini, do'ppi tikish, so'zana va kashtalarga naqsh solishni mukammal bilganlar. Odobda soliha, fikrida zebo bo'lib ulg'ayishgan. Qisqasi, andishani his etishgan, uyatni anglashgan, ixlos, e'tiqod degan tuyg'ular bilan qalblarini ziynatlashgan.

Bugungi biz yoshlar ham tariximizdan, momolarimizdan qolgan an'analardan ibrat olib, kiynishda milliyligimizni unutmaylik. Har qanday kiyimni zamonaviy, milliyligimizga xos tarzda bo'lishiga e'tibor qarataylik. Bu esa urf-odatlarining bardavom bo'lishida, millatimiz sha'ni va qadri yuksak



bo'lishida muhim ahamiyat kasb etishini yodda saqlaylik.

Gulzorda gul ko'p, chaman ko'p, lekin har bir gulning o'z rangi, hidi, hayot tarzi va ifori bor. Millatlar va kiyimlar ham xuddi shunday. Ular rang-barangligi bilan kamalakdek tovlanib, ko'ngillarni quvontirishi lozim.

MUSTAQILLIK - BUYUK NE'MAT

*Xayolimni, yurtim, nurga o'rayman,
Jamolingni mudom obod ko'rayman.
Yaratgandan baxtu omad so'rayman.
Buyuk O'zbekiston mardona, ozod,
Barq ursin ko'ksingda zavq to'la ijod!*

«Bizning go'zal yurtimiz, noyob tabiatimiz, betakror vatanimiz, mehnatkash, bag'rikeng va oliyjanob xalqimiz bor».

I. KARIMOV.

Vatan ona kabi muqaddas!

Vatan! Ta'rifi tarixni tutgan so'z.

Vatan! Shoir she'rlariga zeb, oro bergan kalom, baxshilar tilida doston bo'lgan kuy.

Vatan! Ona allasi, hofiz yallasi, otalar duosida jaranglagan ohang.

Vatan! Sen hofizning mumtoz kuyi, Bobur xayolini bir lahza tark etmagan o'y-fikrlarsan.

Vatan! Sen Cho'lponni yig'latgan, Fitratning qo'llariga qalam tutqazgan, To'marisni jasoratga, Shiroqni shijoatga, Temurni matonatga, Jaloliddinni diyonatga, Najmiddin Kubroni e'tiqodga yetaklagan ulug' mezonсан!

Vatan! Bu besh harfdan tuzilgan kalom zamirida chashma suvidek tiniqlik, Elburs cho'qqisidek buyuklik mujassam. Vatan,



sening qay xislatini so'ylay, har bir g'ishti tillodan osmono'par minoralarini so'ylaymi, dovrug'i yetti iqlimga ketgan bobokalonlarini aytaymi, sen jannatga mengzagulik makonsan. Vatan, sen buyuksan, sajdagoh kabi muqaddassan!

Insonning kindik qoni tomgan zamin uning ona-Vatani hisoblanadi. Mening taqdirim, baxtim ana shunday erkin, obod, mustaqil Vatanda bitildi. Men ana shunday kelajagi porloq yurtning erka farzandiman. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday muqaddas, sajdagohday pok va ulug' bo'lmog'i kerak. Milliy g'ururi, milliy iftixori baland millatni yengib bo'lmaydi». Uning bir qarich yeri ham biz uchun azizdir. Yurtimizni sevish, ardoqlash, bizning sharafli burchimiz. Vatan bizning ikkinchi onamiz.

Bizning Vatanimiz shonli tarixga ega. Doimo Vatanimiz bilan g'ururlanishimiz lozim, chunki dong'i Dog'istonni zabt etgan sohibqiron Amir Temur, g'ururi tog'lardan baland o'zbek ayoli Nodira, xalqiga bo'lgan sadoqati inson qalbida mangu qoluvchi Jaloliddin Manguberdi, yurt sog'inchida vafot etgan Bobur, she'riyat osmonida misli porloq quyosh bo'lgan Alisher Navoiy, yuragida vatan tuyg'usi bilan qalam tebratgan Cho'lpon kabilar tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirganlar. Zero, Vatan uchun qancha xizmat qilsak ham kam. Biz insonlarga suv, havo, quyosh, ota-ona qanchalik kerak bo'lsa Vatan ham shunchalik azizdir. Bizning Vatanimiz O'zbekiston o'zligini anglagan, mardona va mustaqil hamda ko'ksida ijod barq urayotgan ozod va obod diyordir. O'tayotgan har bir kun, har bir soat bizni taraqqiyot sari odimlashga, olg'a qadam tashlashga undaydi. Ozodlik eng ulug', eng aziz qadriyat bo'lib, milliy o'zligimiz, or-nomusimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

1991-yil 31-avgust O'zbekiston uchun asrga tatigulik kun bo'ldi. Shu kundan boshlab O'zbekiston zaminida mardona



mustaqillik so'zi tilimizga ko'chdi. Bobokalonlarimiz orzu qilgan kun keldi. O'tgan yillar ichida O'zbekiston o'z bug'doyi, o'z «oq oltin»i zaxirasiga ega bo'ldi. Toshkent, Buxoro, Xiva hamda Samarqanddagi tarixiy obidalarga e'tibor kuchaydi. Istiqloлга erishgach, qisqa muddat ichida O'zbekiston dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shildi. Bunda mashinasozlik, samolyotsozlik kabi sanoat tarmoqlari, yerosti qazilma boyliklari, qishloq xo'jaligi katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda davlatimiz jahonga yuz tutmoqda. Buni birgina sportchilarimiz misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ko'plab sportchilarimiz Yurtboshimiz tomonidan yaratilib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'z iqtidorlarini jahon arenalarida namoyon etmoqdalar. Nafaqat, sportchilarimiz, balki ilm-fan, madaniyat sohasidagilar ham ulkan muvaffaqiyatlarga erishishmoqda. Bularning bari mustaqillik sharofatidir. Istiqloldan so'ng o'zbek tilini tiklashga alohida e'tibor qaratildi. Har yili yurtimizda 21-oktyabr O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi munosabati bilan har bir viloyatda o'zgacha shukuhda, tantanali nishonlanadi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgandan so'ng, ona tilimiz yanada takomillashdi. Yurtimiz hozirda eng yuksak cho'qqilardan birini egallab kelmoqda.

Ajdodlarimiz asrlar davomida ozodlik, tinchlik uchun kurashishgan. Tarixni bilish, uni o'rganish har bir farzandning Vatan oldidagi burchidir. Har bir millatning o'ziga yarasha an'ana va urf-odatları, oliy qadriyatları bo'lgani kabi o'zbekona urf-odatlarimiz asrlar davomida butun dunyo ahlini o'ziga maftun etib kelgan. Milliy liboslar, o'zbekona taomlar, o'zbekona urf-odat va an'analar bugungi kunga qadar jahon e'tirofida. Mustaqilligimizdan so'ng milliy an'ana va qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. To'y-marosimlarimiz o'zgacha ruhda o'tmoqda. Yurtimizda har yili



o'tkazilayotgan milliy bayramlarimiz, jumladan, 21-mart Navro'z sayillari buning yaqqol isbotidir. Har yili tantana va shodiyonalarga boy bo'lgan bayramlar o'zbekning an'ana va urf-odatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Axir bu ezgulikka yo'g'rilgan asrlarning yenggan o'zbekona urf-odatlar-da. Diyorimizda yashayotgan har bir inson Vatanimizning gullab-yashnashini istaydi. Yurtimiz kundan-kunga chiroy ochib bormoqda. Mamlakatimizdagi bu o'zgarishlar xalqimizning obodonchilik yo'lida qilayotgan ezgu ishlarining ravon ko'rinishidir. Mustaqilligimizning 22 yilligi munosabati bilan «Obodlik ko'ngildan boshlanadi» shiori ostida obodonchilik ishlari olib borilmoqda. Bu ishda har birimiz mas'ul ekanligimizni unutmasligimiz kerak. Yurtimiz 22 yil mobaynida katta yutuqlarga erishdi. O'z yo'limizni, o'z hayotimizni va taqdirimizni o'zimiz hal qilishga juda ko'p imkoniyatlarimiz bor. Shu imkoniyatlardan foydalangan holda biz yoshlar yashnab turgan erkin va obod Vatanimizni yanada rivojlanishiga, go'zallashib, ravnaq topishiga o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Bugungi kunda Vatanimizda sog'lom va barkamol avlod voyaga yetib, o'z iste'dodi va mahorati bilan jahonga tanilyapti.

Mustaqillik keltirgan oliy baxt tufayli biz yoshlar - O'zbekiston tayanchlari - har sohada peshqadam, ilg'or va barkamol avlodmiz. Vatanimiz yigitlari - chempion, qizlari esa *ilmu fan malikalaridir*. Ular O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'tarish maqsadida intilmoqdalar. Sport, madaniyat, ilm-fan sohalarida yuksak cho'qqilarga erishib, diyorimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarishga harakat qilishadi. Men mustaqillik farzandi - Vatanimning dilbandiman. Prezidentimiz yaratgan shart-sharoitlar tufayli yutuqlarga erishyapman. O'z taqdirim misolida mustaqillik va istiqlo'l - xalqimiz, vatanimiz, yurtdoshlarimiz va men uchun naqadar oliy baxt, bebaho ne'mat ekanligini his etyapman. Men O'zbekiston deya atalgan shu muqaddas zamin



tuproq'ida voyaga yetganimdan faxrlanaman. Yurtimiz tinchligi, vatanimiz ertasi uchun o'z bilim va iqtidorim bilan yurt taraqqiyotiga o'z hissamni qo'shsam - baxtliman. Zeroki, mustaqillik bu mening taqdirim, erkin va obod Vatan esa baxtimdir.

*Bobolar kalomi dilimda doim,
Sen uchun yuragim qo'limda doim.
Sog'inaman yurgan yo'limda doim,
Vatan, yagonasan tilimda doim.*

MILLIY ODATLARIMIZGA AMAL QILYAPMIZMI?

Xalqimizda bir-biridan go'zal, bir-biridan nafis odatlarimiz bisyor. Ular bizga momolarimizdan, bobolarimizdan meros qolgan. Bu o'zbek xalqining milliy merosi naqadar boy ekanidan dalolatdir. Yaqin o'tmishda milliy an'ana va urflarimizga chimmat tortmoqqa urindilar. Odatlarimizni bajarishni e'eklab, bu «qonunga» amal qilmaganlarni xalq dushmani sifatida aybladilar. Bunga misol tariqasida benazir iste'dod egalari Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabilarni aytishimiz mumkin. Mana shunday rutubatli kunlardan so'ng, davlatimiz mustaqillika erishdi. Istiqlol bizga o'z urf-odatlarimizni, an'analарimizni qaytarib berdi.

Bugungi faraxbaxsh kunlarimizda urf-odatlarimizga amal qilyapmizmi, degan savol tug'iladi. Masalan, kiyinish madaniyatini olaylik. Bu borada nafaqat qizlar, balki yigitlar ham allaqanday «madaniyat» ketidan quvayotgani kishini hayratga soladi. Ular bu bilan o'zlarining sha'niga faqat dog' tushirayotgani hech kimga sir emas. Qizlarimizning ham "moda" deyavermay, oqpar do'ppilarimiz, beqasamu atlaslarimizni zamonaviy uslubda kiyishlari, sochlarini kesmay,



uzun qilib tashlab yurishlari har qanday ko'zni quvontiradiku.
Kiyinish borasida ham milliy matolarimizga ko'proq murojaat
etsak bo'lmasmikan? Fikrimni sevimli shoirimiz Ahad
Qayumning quyidagi misralari bilan yakunlamoqchiman:

*Qodiriyning elga nidosi qani,
Ayolning ibosi, hayosi qani,
Dunyoni sotvorar to'rt tanga pulga,
Chet ellardan bilmam izlar nimani,
Kumushbibi nozlariga ne bo'ldi,
Bugun o'zbek qizlariga ne bo'ldi?*



MUNDARIJA

Uyg'ocq qalb da'vati	3
Tunda ushalgan orzu	5
Hasad	6
So'z sehri	16
Erta turmush qurishning oldini olaylik	17
Giyohvandlik - asr vabosi	21
Telefonda so'zlashish odobi	23
Kiyinish ham odob, ham axloq	26
Mustaqillik - buyuk ne'mat	29
Milliy odatlarimizga amal qilyapmizmi?	33

2000 cilmi.

Adabiy-badiiy nashr

Gullola Rahmatullayeva
«KO'NGIL GAVHARI»
(Hikoya va maqolalar)

Muharrir
Texn.muharrir
Musahhih
Musavvir
Sahifalovchi

Faxpiddin Ibaydullayev
Tolibjon Qo'ziboyev
Nilufar Yuldasheva
Sayyora Jo'rayeva
Qumriniso Ashurova

Noshirlik litsenziyasi AI № 175. 11.06.2010 yil.

Bosmaxonaga 2013-yil 27-sentyabrda berildi. Bosishga 2013-yil 1-noyabrda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32. Hajmi 1,12 bosma taboq. Nashriyot tabog'i 1,9. Times New Roman garniturasida, ofset qog'ozi, ofset usulida chop etildi. Buyurtma № 2022. Adadi 200 dona. Bahosi kelishilgan narxda.

«Andijon nashriyot-matbaa» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy.